



**MA'RIFAT YO'LINING SO'NMAS YULDUZI: MAHMUDXO'JA
BEHBUDIY**

Tojaxmadova Muxlisa Kamoliddin qizi

Namangan davlat universiteti Tarix yo'nalishi talabasi

Tel.: +998944037845

Ilmiy rahbar: Madraximov Zoxid Sharofovich,

Namangan davlat universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Annotatsiya:

Ushu maqolada buyuk ma'rifatpavar Mahmudxoja Behbudiyning XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida keng tarqalgan jadidchilik harkatidagi o'rni, ma'rifatparvarlik harakati, ilmiy-ma'naviy merosi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar:

Turkiston, jadidchilik, Mahmudxoja Behbudi, Samarqand, “Turkiton jadidlari otasi”, o'zbek dramaturgiyasi asoschisi, mustaqillik.

Turkiston ijtimoiy-siyosiy harakatining eng yirik namoyondasi, Turkiston jadidlari rahnamosi, mustaqil jumhuriyat g'oyasining bayroqdori, yangi usul maktablari targ'ibotchisi hamda amaliyotchisi, o'zbek dramaturgiyasi asoschisi, noshir Mahmudxo'ja Behbudi tariximizning g'oyat og'ir va murakkab bir davrida yashadi [3]. Mahmudxo'ja Behbudiyning o'z qo'li bilan yozgan tarjimai xoli shu kungacha topilgani yo'q. Ammo tadqiqotchilar Hoji Muin, Sadriddin Ayniy va boshqalarning “Mehnatkashlar tovushi”, “Zarafshon”, “Qizil bayroq”, “Buxoro axboroti” gazetalarida, “Inqilob”, “Uchun”, “Ma'orif va O'qituvchi” jurnallaridagi va maqolalari zaminida bu buyuk ma'rifatpavarning tarjimai xolini tiklab, e'lon qiladilar. So'nggi yillarda e'lon qilingan arxiv hujjatlari, S.Qosimov va



Z.Ahrorovalar bilan uyushtirilgan suhbat va materiallar, Behbudiyning o'z maqolalari uning tarjimai xolini to'laroq yoritishga imkon berdi.

Hoji Muin Behbudiyning tog'asi Mulla Odil so'ziga asoslanib yozishicha, Behbudiyy – Sulton ul -orifin xazrat Ho'ja Ahmad Yassaviy zurriyodi Qori Niyozxo'ja Urganchiy avlodidir. U amir Shohmurod davrida Buxoroga taklif qilingan bo'lib, o'sha -o'sha Samarqandda yashab qoladi va o'z avlodini davom ettiradi.

Niyozxo'janing Solihxo'ja ismli o'g'li bo'lib, undan Sultonxo'ja hamda Huriniso, Najimaniso ismli bir o'g'il va ikki qiz qolgan. Solihxo'ja qizlarini maxsus o'qitib xat savodini chiqartirgan. Qizi Huriniso Qur'oni Karim xatmini oxiriga yetkazgani uchun “Qoriyabegim” deb ulug'langan. Sultonxo'ja qorilikni Huriniso Qoriyabegimdan o'rgangan. Voyaga yetgach mahalla masjidida imom-xatib bo'lib ishlash bilan bir qatorda islom qonunshunosligi – ilmi fiqh va to'nfurushlik bilan shug'ullangan va o'ziga “Behbudiyo'ja” deb taxallus olgan. Bora-bora Sultonxo'ja ismi unutilib, barcha Behbudiyy deb atagan, Mahmudxo'ja shu kishining farzandidir [1. – B. 7-8].

Mahmudxo'ja Behbudiyy 1875-yil 19-yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida tavallud topgan. Mahmudxo'ja tog'asi qozi Muhammad Siddiq tarbiyasi va qaramog'ida o'sib ulg'ayadi. Arab tili grammatikasini kichik tog'asi Mulla Odildan o'rganadi. Buxoro madrasalarida tahsil olib yurgan paytlarida dastlab onasi (1893-y.), so'ngra otasi (1894-y.) vafot etgach, moddiy qoyinchliklar sabab o'qishni nihoyasiga yetkaza olmaydi. Samarqandga qaytib, Muhammad Siddiq qozixinasida mirzalik qila boshlaydi. Tez orada mufti darajasiga ko'tariladi. 1899 – 1900-yillarda Mahmudxo'ja Behbudiyy Haj ziyoratiga o'tlanadi. Sakkiz oylik sayohati davrida ozodlik uchun kurash yo'llarini izlaydi. Dunyoda bo'layotgan voqea-hodisalar, jumladan, milliy ozodlik harakatlari va ularning sabablari, mohiyatini millat manfaati nuqtai nazaridan tafakkur chirog'idan o'tkazadi [3].



Mahmudxo'ja Behbudiyy o'z vataniga qaytganidan keyin mutafakkir tariximizning tanazzul bosqichlari va sabablarini taftish qiladi. Mahmudxo'ja Behbudiyyning hayot faoliyati keyinchalik butunlay millat, xalq dardida o'tadi. U o'z yurtini Yevropaning rivojlangan davlatlari qatorida ko'rishni, milliy mustaqillikni tiklashni va buning uchun xalqni ma'rifatli qilishni allaqachon tushunib yetgan edi. Bugungi yosh avlod Mahmudxo'ja Behbudiyyning amalga oshirgan ishlarini va uning xalq yo'lidagi fidokorligini o'qir ekan, bunday buyuk simolarning avlodi ekanligidan faxr tuyg'usini his qiladi.

Mahmudxo'ja Behbudiyy mana shunday ma'rifatchilik faoliyatiga astoydil kirishib ketdi hamda yangi ilm maskanlarini ochishda jonbozlik ko'rsatdi. U bunday maktablardan birini uyida ham ochdi. O'quvchilar uchun "Risolai jug'rofiya umroniy", "Tarixi islom", "Kitobatul atfol" va boshqa darsliklar yaratdi [5].

Ommaning o'zini o'zi milliy anglashini o'stirish va uyg'otish endilikda uning hayoti mazmuniga aylanib qolgan edi. Mahmudxo'ja Behbudiyy oradan ko'p vaqt o'tmasdan Turkistondagi mana shu kurashning bayroqdoriga aylandi. Uning atrofida tobora ko'plab maslakdoshlar jipslasha boshladi.

Ana shu vaqt mobaynida u o'z bilimlarini boyitish ustida ishladi. Uning ilmiy manfaatlari doirasi juda keng edi. Behbudiyy qiziqqan sohalar teologiya, tarix, falsafa, pedagogika, sotsiologiya, adabiyot, etnografiya va boshqalar, ya'ni hozirgi paytda "ijtimoiy fanlar" deb ataladigan jamiki fanlar edi. Uning safdoshlaridan biri Fayzulla Xo'jayev keyinchalik ta'kidlab o'tganidek, Behbudiyy bilimlarining kengligiga ko'ra buyuk shaxs bo'lib, o'sha davrda Turkiston jadidlari orasida unga teng keladigan odam topilmasdi.

U xalqni yagona millatga birlashtirish uchun yangi usuldagi maktablarni ochishning o'zi kifoya qilmasligini, balki milliy matbuot va milliy teatrni rivojlantirish zarurligini ham tushunib yetgan edi. Behbudiyy matbuot, nashriyot masalalari bilan astoydil shug'ullanishga kirishdi. 1913-yili "Samarqand"



gazetasini, o'sha yilning avgust oyida esa "Oyina" jurnalini chiqara boshladi. Mazkur jurnal Tatariston, Kavkaz, Qrim, Eron, Afg'oniston, Hindiston va Turkiyada ham tarqatilardi. Shuningdek, Behbudiy "Nashriyoti Behbudiya" nashriyotini tashkil etdi, uning qoshida «Kutubxonai Behbudiya» deb nomlangan kutubxona ham ochdi. Va u tez orada O'rta Osiyodagi eng yirik kutubxonalardan biri bo'lib qoldi [5].

"Samarqand" gazetasi va "Oyina" jurnali xalqning o'zini o'zi milliy anglash, uyg'onishida, o'zbek xalqi milliy g'ypyrining tiklanishida juda katta rol o'ynadi. Ammo gazeta ham, jurnal ham uzoq yashab keta olmadi, bunga, asosan, senzura sabab bo'ldi.

1917-yilga kelib, jadidizm ma'rifatchilikdan siyosiy harakat darajasiga ko'tarila boshladi. Turkistondagi siyosiy ahvolga Mahmudxo'ja Behbudiyning munosabati shunday ediki, uni siyosiy maqomni tubdan o'zgartirish, mustaqillikni qo'lga kiritish bilan bog'liq holda ko'rgandi. Behbudiy o'z maqolalarida rus chorizmi va Muvaqqat hukumatning mustamlakachilik siyosatini fosh etdi, ularning qonunlarini tanqid qildi.

Mahmodxo'ja Behbudiy hayotining so'nggi yillari taxlikalarga boy bo'ldi. Bir tomondan hokimoyat tepasiga yangi kelgan sho'ro hukumati, ikkinchi tomondan yangiliklarga qarshi bo'lgan amirlik hukumati jadidlar faoliyatiga qarshilikni, ta'qibni kuchaytirdi. So'nggi yillarda "Turkiston jadidlarining otasi" Mahmudxo'ja Behbudiyning o'limini o'rganish bilan bog'liq ko'plab maqolalar e'lon qilindi. Jumladan, Halim Saidning yozishicha, Behbudiyning g'oyib bo'lganligi haqidagi ilk rasmiy xabar ular chiqib ketganlaridan bir oy keyin "Mehnatkashlar tovushi" gazetasining 1919-yil 23-aprel', ikkinchi habar esa o'sha yilning 20-noyabr' sonlarida berilgan. Ko'chirmada qayd etilishicha: O'lka musulmon byurosi Behbudiyning taqdiri haqida malumot berishni so'rab, Xorijiya komissarligi orqali Qo'shbegiga murijat etgan. Ammo Qo'shbegidan o'z vaqtida javob kelmagan va O'lka musulmon byurosi RSFSR ning Buxoro amirligidagi Muxtor vakilidan shu



masalada yordam berishni iltimos qilgan. Muxtor vakil bu xatga javob ololmaganligi sababli 14-avgustda Qo'shbegiga ikkinchi marotaba murojat qiladi. Shunday qilib, Qo'shbegi Behbudiyning Qarshibegi qamoqxonasidan ozod etilganligini aytib, Behbudi o'limining Buxoro amiri buyrug'i bilan qatl etilgani haqidagi versiyani rad etgandek bo'ladi. Shu narsa malumki, 1920-yilning mart oyida Behbudi o'limi tafsilotlarini tekshirish bo'yicha yetti kishidan iborat komissiya tuzilgan, Behbudiyning taziya marosimini o'tkazish va oilasiga yordam berish uchun esa 90 ming so'm miqdorida mablag' yig'ilgan. Bu haqidagi malumotlar va komissiyaning xulosasi "Mehnatkshlar tovushi" gazetasida chop etib borilgan.

Maxfiy arxivlardagi shu davrga tegishli hujjatlarni yaxshi o'rgangan M.Vaxobov boshqa fikrni alg'a suradi: "Parijda, – deb yozgan u, – birinchi Jahon urushi g'oliblari – Antanta davlatlari o'rtasida Versal konfrensiyasi davom etayotgan paytda "Milliy ittixod" tashkiloti topshirig'iga muvofiq mahalliy millatchilardan bir guruhi Parijga yuborildi. Behbudi va Mardonqul Buxoro orqali Eronga o'tib, u yerdan Parijga bormiqchi bo'lib yo'lga chiqdi. Ularni Buxoro amiri Qarshi shahrida qamoqqa oldi va o'ldirdi".

Bu ikki xil qarashlarning qaysi biri to'g'riligidan qat'iy nazar, Mahmudxo'ja Behbudi hamrohlari bilan Turkiston sho'rolar asoratidan xalos bo'lish, islohot uchun najot izlab, Yevropa sari yo'lga chiqqan edi [2. – B. 65-77]. Shu faktning o'zidanoq Behbudiyning kimning qo'lidan halok bo'lgani ma'lum bo'lib turibdi. Demak, "Turkiston jadidlarining otasi", otashin marifatparvar va vatanparvar Mahmudxo'ja Behbudi istiqlol yo'lida qurbon bo'lgan desak mubolag'a bo'lmas.

Mustaqillik yillarida yurtimizda ulug' ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, hayoti va faoliyatini o'rganish hamda ilmiy va badiiy asarlarini ommalashtirish yo'lida muhim tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, 2020-yili buyuk bobokalonimiz Mahmudxo'ja Behbudiyning 145-yilligi keng nishonlangani, ushbu ma'rifatparvar insonning ibratli hayoti va ijodiga bag'ishlangan ulkan badiiy polotno – bebaho filmning yaratilishi ma'naviyatimiz darg'alaridan biri haqida xalqimiz yangi



ma'lumotlarga ega bo'lishida muhim ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrdagi "Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida" gi qarori qabul qilindi [4]. Davlatimiz rahbari ushbu qaror orqali bugungi davr uchun Behbudiy g'oyalari, bu allomaga o'xshash fidoyi ziyolilar nechog'lik zarur ekanligiga ushora qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Махмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. 1-жилд. – Т.: Akademnashr, 2018.
2. Каримов Наим. Махмудхўжа Бехбудий. – Тошкент, 2010.
3. <https://uzkimyosanoat.uz/oz/manaviyat/ajdodlarga-ehtirom/mahmudxuja-behbudiy>
4. https://uza.uz/oz/posts/mahmudxoja-behbudiy-va-turkiston-jadidchiligi-video_679112
5. Mustaqillik kurashchisi / <https://xs.uz/uz/post/mustaqillik-kurashchisi>